



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AVSTRIYA RESPUBLIKASI VA SHVEYSARIYA KONFEDERATSIYASI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARI TARIXI

Abduraximov Husniddin Sadriddin o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikdan keyingi davrda Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasi bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda asosiy yo‘nalishlari keng qamrovda tahlil etiladi. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va ilmiy manbalarga tayangan holda ikki tomonlama aloqalarning iqtisodiy, institutsional va huquqiy asoslari ochib beriladi hamda mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ilmiy asosda yoritiladi. Ushbu maqolada Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasining O‘zbekiston bilan iqtisodiy aloqlar o‘rnatilishiga sabablar, ikki tomonlama manfaatlar hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan loyihalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, tashqi savdo, eksport, import, xalqaro munosabatlar, erkin iqtisodiy zona, qo‘shma korxonalar.

ИСТОРИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКОЙ АВСТРИЯ И ШВЕЙЦАРСКОЙ КОНФЕДЕРАЦИЕЙ

Абдурахимов Хусниддин Садриддин угли
Навоийский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются этапы формирования и развития экономического сотрудничества между Республикой Узбекистан, Республикой Австрия и Швейцарской Конфедерацией. На основе архивных документов, статистических данных и научных источников раскрываются основные направления и проблемы двусторонних отношений. В данной статье рассматриваются причины установления экономических связей Республики Австрия и Швейцарской Конфедерации с Узбекистаном, взаимные интересы сторон, а также проекты, реализованные в данном направлении.

Ключевые слова: экономическое сотрудничество, инвестиции, внешняя торговля, экспорт, импорт, международные отношения, свободная экономическая зона, совместное предприятие.

THE HISTORY OF ECONOMIC COOPERATION RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF AUSTRIA AND THE SWISS CONFEDERATION

Abdurakhimov Husniddin Sadriddin ugli
Navoi State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the formation and development stages of economic cooperation between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Austria and the Swiss Confederation.

Based on archival sources, statistical data, and scientific literature, the main directions and challenges of bilateral relations are examined. This article discusses the reasons for establishing economic relations between the Republic of Austria and the Swiss Confederation with Uzbekistan, bilateral interests, as well as the projects implemented within this framework.

Keywords: economic cooperation, investment, foreign trade, export, import, international relations, free economic zone, joint venture.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv yo‘lini tanlab, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratdi. Ushbu jarayonda Yevropa davlatlari, xususan, Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish muhim strategik ahamiyat kasb etdi. Mazkur davlatlar rivojlangan iqtisodiy tizimi, investitsion salohiyati va texnologik imkoniyatlari bilan O‘zbekiston uchun ishonchli hamkor sifatida namoyan bo‘ldi.

O‘zbekistonning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va tranzit imkoniyatlari uni Yevropa davlatlari uchun ham jozibador hamkorlardan biriga aylantirdi. Shu bois, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va savdo munosabatlarini kengaytirishga qaratilgan izchil siyosat amalga oshirildi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan O‘zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga asoslangan o‘zi uchun yangi iqtisodiy siyosatni bosqichma-bosqich joriy etishga kirishdi. Bu borada ko‘pgina rivojlangan Yevropa mamlakatlari qatori Shveysariya va Avstriya tajribasi va yordami yosh mustaqil davlatning keyingi istiqboli uchun samarali hissa qo‘shdi, deb ayta olamiz. Mana shu benihoya murakkab sharoitda biz o‘zimizning yangilanish, rivojlanish va taraqqiyot yo‘limizni ishlab chiqdik.

Qo‘llanilgan metodlar

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, statistik ma‘lumotlarni solishtirish, tizimli yondashuv va kompleks tahlil metodlaridan foydalanildi. Arxiv hujjatlari, gazeta materiallari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida O‘zbekistonning Avstriya va Shveysariya bilan iqtisodiy hamkorligi rivoji bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

Mavzuning asosiy qismi

O‘zbekistonning Avstriya Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorligining dastlabki bosqichlari murakkab moliyaviy jarayonlar bilan kechdi. Xususan, O‘zbekiston va Avstriya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojiga jiddiy turtki bergan muhim voqea 1992-yil oktyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Avstriya Respublikasiga tashrifi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Avstriyaga tashrifidan so‘ng 1993-yilga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bilan Avstriya Respublikasi o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha kelishuv va kelishilgan qarorlarni amaliy amalga oshirish bo‘yicha ishchi reja tuzildi. Biroq uskunalar va oziq-ovqat mahsulotlariga narxlarning yuqoriligi sababli ushbu reja to‘liq hajmda amalga oshirilmadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi va Avstriya Respublikasi o‘rtasida investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi, shuningdek, ikki tomonlama tashqi iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimlar paraflangan.

“1993-yil 17-iyunda O‘zbekiston Respublikasi va Avstriya Respublikasi o‘rtasida havo qatnovi to‘g‘risidagi hukumatlararo bitim imzolangan.

Avstriyaning qator tijorat banklari “Zarafshon–Nyumont” loyihasini moliyalashtirishda ishtirok etgan. Avstriya banklari va boshqa moliyaviy institutlar O‘zbekiston iqtisodiyotini investitsiya kiritish uchun istiqbolli deb hisoblaydi.

O‘zbekistondan kelgan emigrantlar, asosan, Avstriyada istiqomat qilayotgan Buxoro yahudiylari diasporasi vakillari, O‘zbekiston bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirishdan manfaatdor. Biroq to‘g‘ridan to‘g‘ri aviareyslarning yo‘qligi, shuningdek, uzoq vaqt talab

etadigan viza rasmiyatchiliklari O‘zbekistonga tashrif buyurishni istovchilar oqimini cheklab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikka qiziqish bildirayotgan Avstriya firmalari qatoriga “Agrotek”, “Fest–Alpine”, “Androsh Treyding”, “Armaz Treyd GmbH” kabi kompaniyalar kiradi” [1;45].

Zamonaviy dunyoda Avstriyaning yuqori siyosiy va iqtisodiy reytingini, yetakchi avstriyalik kompaniyalarning ishonchli hamkorlar sifatida asoslangan obro‘-e‘tiborini, ikki mamlakat iqtisodiyotlarining o‘zaro to‘ldiruvchanligini inobatga olgan holda, mamlakatlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri, alohida xususiyatga ega, uzoq muddatli va keng ko‘lamli iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi davlatining tub manfaatlariga javob berar edi hamda sof iqtisodiy foydalardan tashqari respublikaning jahon hamjamiyatidagi nufuzining oshishiga ham xizmat qilgan bo‘lar edi.

Buning uchun ishonchli huquqiy, tashkiliy, shuningdek, muhim jihatdan, qulay shaxslararo mexanizmlar 1992-yilning sentabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasining Avstriya Respublikasiga rasmiy ishchi tashrifi davomida yaratilgan edi.

O‘zbekiston–Avstriya iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishning institutsional va huquqiy yo‘nalishlari. Davlatlararo kelishuvlar majmuasini tuzish orqali iqtisodiy hamkorlikning siyosiy-huquqiy asoslarini shakllantirishni yakunlash.

Venada parafirlangan investitsiyalarni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish to‘g‘risidagi bitim bilan bir qatorda, bu yerga savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar, savdo vakolatxonalarini tashkil etish to‘g‘risida, ikki tomonlama soliqqa tortilishdan qochish to‘g‘risida, havo aloqasi to‘g‘risida, ish safarlari bo‘yicha vizasiz kirish rejimi to‘g‘risidagi bitimlar ham kiritilishi mumkin edi. Ushbu hujjatlarning loyihalari O‘zbekiston Respublikasi MVES (TIV) mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida avstriyalik kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari uchun moliyalashtirish va hukumat kafolatlari to‘g‘risidagi bitim alohida muhim ahamiyat kasb etadi, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan muzokaralar yakunlari bo‘yicha kansler F. Vranitskiy tomonidan taklif etilgan.

2. Avstriya Respublikasining ishbilarmon doiralari orasida katta ta‘sirga ega bo‘lgan Federal iqtisodiyot palatasi bilan tizimli aloqalarni davom ettirish yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, palata O‘zbekiston Respublikasiga menejment va boshqaruv, moliya va marketing sohalarida kadrlar tayyorlashda ko‘maklashish imkoniyatlariga ega.

Tomonlar sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan Federal iqtisodiyot palatasi rahbariyati va Avstriya ishbilarmon doiralari vakillari o‘rtasidagi uchrashuv chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amaliy jihatdan amalga oshirish uchun MVES (TIV)ga Federal iqtisodiyot palatasi vakili sifatida G. Shmidtmayr janobini O‘zbekiston Respublikasiga hukumat mehmoni sifatida tashrif buyurishga taklif etildi va bunga erishildi.

3. Xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish va tovar ayirboshlashni valyuta asosida rivojlantirishning eng dolzarb muammolaridan biri O‘zbekiston Respublikasida bank va sug‘urta ishini takomillashtirish hisoblanadi.

Tegishli avstriyalik institutlarning yuqori obro‘-e‘tiborini inobatga olgan holda, Toshkent shahrida avstriyalik banklar va sug‘urta kompaniyalari filiallarini tashkil etish, ushbu sohada qo‘shma korxonalar tuzish bo‘yicha harakatlar boshlandi. Shubhasiz, bu Avstriyaning sanoat va savdo firmalarining O‘zbekistonda ishlashga bo‘lgan qiziqishini keskin oshirdi.

Shu munosabat bilan Moliya vazirligiga, Markaziy bankka, O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankiga qisqa vaqt ichida Avstriya Milliy banki, Kreditanshtaltbank, Lenderbank, RZB banki bilan ushbu masalalarni amaliy hal etish uchun ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatish hukumat vazifasi qilib belgilandi.

4. “1992-yil 10–12 noyabr kunlari Vena shahrida investitsiyalar muammolariga

bag'ishlangan nufuzli xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uni o'tkazish jarayonida yetakchi firmalar va kompaniyalar e'tiboriga MDH mamlakatlaridagi investitsiya loyihalari taklif etildi. MVES (TIV) Prezident apparati mutaxassislari (Golyshev V. A.), Davlat prognozlash qo'mitasi bilan hamkorlikda ushbu konferensiya uchun takliflar paketini tayyorlashdi" [2;56].

5. O'zbekiston bozoriga zarur tovarlarni barqaror yetkazib berishni tashkil etish uchun yetakchi va nufuzli avstriyalik "Doktor K. Pizek" savdo uyi bilan uzoq muddatli hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Sovet bozorida ko'p yillar faoliyat yuritishi davomida ushbu uy o'zini ishonchli hamkor sifatida namoyon etgan. Shuningdek, uning Avstriya hukumat doiralari bilan yaqinligi va Yevropa bozoridagi yuqori obro'-e'tiborini ham inobatga olish lozim.

"1994-yil Toshkent Xalqaro biznes markazi zalida "Bakalovits va o'g'illari" (Bakalovits & Söhne) (Avstriya) firmasi bilan hamkorlikda 31-maydan 4-iyungacha ajoyib qandillar ko'rgazmasi o'tkazilgan" [3;4]. Toshkentda birinchi marotaba dunyoga taniqli "Bakalovits va o'g'illari" firmasi mahsulotlari ko'rgazmasi o'tkazilgan. Bu yerda Yevropa, Amerika va Sharqiy Arabistondagi ko'pgina vakolatxona idoralari, saroylar, teatrlar, muzeylarni bezab kelayotgan eng yuqori sifatli billur qandillar namoyish etildi.

Bevosita Shveysariya Konfederatsiyasi bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu sohada ham dastlabki yillarda bir qancha qiyinchiliklar namoyon bo'ldi. "1996-97-yillarda "Legimpeks" AJ Shveysariyaning "Ciba Industrial Marketing Ltd" firmasi bilan umumiy summasi 1822,4 ming AQSh dollariga teng bo'lgan 5 ta import shartnomasi tuzgan. Ushbu shartnomalar O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Tuzilgan shartnomalar bo'yicha 1822,4 ming AQSh dollari miqdorida tovarlar olib kelingan va 933,8 ming AQSh dollari miqdorida to'lov amalga oshirilgan, kreditorlik qarzdorligi esa 888,6 ming AQSh dollarini tashkil etadi. "Legimpeks" AJ tomonidan 1404,6 ming AQSh dollari miqdoridagi so'm mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha arizalar topshirilgan. 539,03 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar qabul qilingan va konvertatsiya qilingan. Qayta ishlash uchun qaytarilgan — 865,6 ming AQSh dollari. Keyinchalik konvertatsiya bo'yicha arizalar topshirilmagan" [4;172].

Mazkur holatlar O'zbekiston-Shveysariya savdo-iqtisodiy aloqalarida hamkorlik bilan bir qatorda, o'tish davri iqtisodiy sharoitida moliyaviy intizom va to'lov qobiliyati bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lganini ko'rsatadi hamda ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarning murakkab va ziddiyatli jihatlarini yoritib beradi.

Rivojlanayotgan dunyoda tashqi savdo aloqalari nafaqat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida, balki tadbirkorlik subyektlarining ham rivojida katta ahamiyatga egadir. Raqobatbardosh, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, import qilinayotgan tayyor sanoat mahsulotlarini mahalliyashtirish va eksport salohiyatini yuksaltirish iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi hisoblandi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi savdo munosabatlarini erkinlashtirish borasida chuqur islohotlar amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoning geografik va tovar tarkibida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. "O'zbekiston bugungi kunda 45 dan ortiq mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo aloqalariga ega. Tashqi savdo aylanmasi 1991-yildagi 2,1 mlrd. dollardan 2023-yilda 62,6 mlrd. dollar hajmiga yetdi" [5;142]. 2013-yilda Shveysariya bilan o'zaro tovar aylanmasi 141,4 mln AQSh dollarini tashkil etdi. 2014-yilning 9 oyi mobaynida ikki tomonlama savdo-sotiq hajmi 92,3 mln AQSh dollariga yetdi. O'zbekistondan Shveysariyaga paxta tolasi, yog'och-qog'oz massasi va dori-darmonlar, xizmatlar eksport qilinadi. Import qilinadigan tovarlar orasida esa to'qimachilik jihozlari, turli asbob-uskunalar, farmatsevtika hamda turli kimyoviy vositalar, optika uskunalari, plastmassa va boshqalar mavjud.

Xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalari va eksport salohiyatining kuchayishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. "Made in Uzbekistan" brendi asosida ishlab chiqarilgan sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining dunyo bozorida o'rni va ahamiyati

tobora oshib bormoqda. Chunki so‘nggi yillarda mamlakatimizda jahon bozoriga chiqish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan chuqur sa’y-harakatlar olib borildi. 2022-yil iyun oyida Avstriyaning Vena shahrida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining birinchi ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Venada O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ilk bor namoyish etildi. Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad shuki, O‘zbekistonning agrar, eksport va sayyohlik salohiyatini namoyon etish, avstriyalik tadbirkorlarni “Made in Uzbekistan” brendi bilan tanishtirish. “Ko‘rgazmada Avstriya bozori uchun yangi bo‘lgan mahalliy mahsulotlar — holva (Farg‘ona), bio-qurt (turli xili), lakritsa (qizilmiya ildizi) va mahalliy uzum navlaridan vinolar namoyish etildi. O‘zbekistonda yetishtirilgan mahsulotlar taqdimoti doirasida o‘zbek qovunining Yevropa bozorida tobora ommalashib borayotgani alohida qayd etildi” [6;240,241].

2023-yil 4-dekabrda Vena shahrida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston-Avstriya hukumatlararo komissiyasining 8-yig‘ilishi va biznes-forum bo‘lib o‘tdi. “Tadbirda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari, umum mavsumiy turizmni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalarni joriy qilish, muqobil energetika, tog‘-kon sanoati, infratuzilma va temir yo‘llarni modernizatsiya qilish, tibbiy asbob-uskunalarni yetkazib berish sohasida, chorvachilikni rivojlantirish va boshqa yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratildi. Avstriya tomoni mazkur sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha 20 dan ortiq takliflarni taqdim etdi” [7;1].

Avstriya tashqi ishlar vaziri Aleksandr Shallenberg so‘nggi yillarda o‘zaro hurmat va do‘stlikka asoslangan O‘zbekiston-Avstriya munosabatlari ijobiy sur‘at namoyon etib borayotganini ta’kidlab, O‘zbekiston hukumatiga maktubida shunday ta’kidlaydi: “Avstriya ishbilarmon doiralari O‘zbekistonni mintaqadagi, ayniqsa, infratuzilmani rivojlantirish va yashil iqtisodiyotga o‘tish nuqtayi nazaridan eng istiqbolli bozorlardan biri deb biladi” [8].

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, inson salomatligi ko‘p jihatdan atrof-muhit holatiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyoti atrof-muhitni qurbon qilish evaziga bo‘lmasligi kerak. Bugungi global dunyoda ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirgan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishni maqsad qilgan O‘zbekiston hukumati “yashil texnologiyalar” sohasida Avstriya bilan yaqindan hamkorlik munosabatlari o‘rnatgan. 2022-yil 20-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 77-sessiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Vladimir Norovning Avstriya Respublikasi Yevropa va tashqi ishlar vaziri Aleksandr Shallenberg bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

“Davlatlararo hamkorlikda so‘nggi yillarda ijobiy dinamika kuzatilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Aloqalarni ikki tomonlama asosda va “O‘zbekiston–Avstriya–Yevropa Ittifoqi” formatida jadallashtirish ta’kidlandi. O‘zbekiston iqtisodiyotining gidroenergetika, yashil texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi va qurilish sanoati kabi tarmoqlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri Avstriya investitsiyalarini jalb qilish imkoniyatlari mavjudligi qayd etildi”.

Bir so‘z bilan aytganda, yashil texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlari va ta’minot zanjirlari ekologik toza yoki an’anaviy ishlab chiqarish usullariga nisbatan kamroq zararli bo‘lgan texnologiyalardir. Bularga chiqindilarni qayta ishlash, elektr energiyasining muqobil manbalaridan foydalanish, suvni biologik tozalash, gidroenergetika, quyosh energiyasi kabi texnologiyalarni misol keltirishimiz mumkin. Bu borada Avstriya tajribasi va yordami orqali O‘zbekiston hukumati yashil iqtisodiyotni yaratishda tub o‘zgarishlarni amalga oshirmoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasining Avstriya Respublikasi va Shveysariya Konfederatsiyasi bilan iqtisodiy hamkorligi so‘nggi yillarda izchil rivojlanib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu hamkorlik an’anaviy savdo aloqalaridan innovatsion va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan iqtisodiy modelga o‘tish jarayoni bilan tavsiflanadi.

Avstriya bilan hamkorlik asosan investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilma va “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, Shveysariya bilan iqtisodiy aloqalar moliya, farmatsevtika, texnologiya hamda transchegaraviy resurslarni boshqarish yo‘nalishlarida muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, suv resurslarini boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlash borasidagi loyihalar ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, davlatlararo muloqotning faollashuvi, investitsion muhitning yaxshilanishi va xalqaro hamkorlik formatlarining kengayishi O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida yashil texnologiyalar, muqobil energetika va innovatsion sohalarda hamkorlikni chuqurlashtirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'z MA.M-37-fond, 1-ro'yxat, 1904-yig'ma jild, 45-varaq.
2. O'z MA.M-37-fond, 1-ro'yxat, 446-yig'ma jild, 56-varaq.
3. "Billur qandillar ko'rgazmasi" // *Xalq so'zi*. – 1994. – 28-may. – № 104 (852). – B. 4.
4. O'z MA.M-37-fond, 1-ro'yxat, 7335-yig'ma jild, 172-varaq.
5. Farxod o'g'li P. L. O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi va iqtisodiy hamkorlik yo'nalishlari // *Tadqiqotlar.uz*. – 2024. – T. 35. – № 2. – B. 140–149 (142-b.).
6. Turayeva G., Ortiqboyeva S., Qo'ziyev I., Rasulov A., Tojiboyeva T., Turdibekov U. B. va boshq. Made in Uzbekistan brendi bilan sotilayotgan eksport mahsulotlarining statistik ko'rsatkichlari // *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*. – 2022. – T. 1. – № 28. – С. 240–243.
7. "Avstriya bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik chegaralari kengaytiriladi" // *Yangi O'zbekiston*. – 2023. – 4-dekabr. – B. 1.
8. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. Rasmiy sayt. – URL: <https://mfa.uz> (murojaat qilingan sana: 21.09.2022).